



KOMPYUTER LINGVISTIKASINI O'QITISHNING DIDAKTIK MODELINI ILMIY ADABIYOTLARDA O'RGANILISHI

O.B.Mamirov,

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIIYA
Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil Jurnal soni: 17-B Maqola raqami: 20 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1449 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Ta'lim-tarbiya, formallashtirish, kichik guruhlar, interfaol metodlar, darslarni tashkil qilish, modellashtirish, pedagogik maxorat.	Maqolada kompyuter lingvistikasi fanini o'qitishda zamonaviy didaktik yondashuv va pedagogik texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan model taqdim etilgan. Asosiy e'tibor talabalarni mustaqil o'quv faoliyatiga yo'naltirish, ularning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, interfaol metodlar va o'yin topshiriqlari orqali amaliy bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan. Muallif didaktik modellashtirishning uch bosqichli jarayonini – formalashtirish, model ichida yechish va interpretatsiyalash – batafsil tushuntirib beradi, bu orqali talaba matematik va amaliy masalalarni mustaqil tarzda tahlil qilishi va yechimini amaliy mazmun nuqtai nazaridan baholash imkoniga ega bo'ladi. Maqolada o'quv jarayonida kitob ustida ishlash metodikasi, talabalarni o'z fikrini asoslashga, matnni tahlil qilishga va muallif fikrini tanqidiy yondashuv bilan qabul qilishga o'rgatish mexanizmi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, talabalarining iqtiboslar tanlashi, ularni solishtirib baholashi va kichik guruhlar yoki juftliklarda tahlil qilish amaliyoti orqali mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalari rivojlantiriladi. Maqolada didaktik modellar va modellashtirishning nazariy asoslari, ularning tarixiy rivojlanishi, shuningdek, pedagogik jarayonda "Nima uchun?", "Nimani?", "Qanday?" va "Qachon?" kabi savollarni yechishda o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi roli yoritilgan. Didaktik model yordamida o'qitish jarayonini rejalashtirish, o'quv dasturlarini ishlab chiqish va baholash faoliyati tizimli tarzda amalga oshiriladi. Natijada, maqolada taklif etilgan kompyuter lingvistikasi o'qitish modeli har bir milliy ta'lim tizimi uchun moslashtirilishi, o'quv jarayonini optimallashtirishi va talabalarni mustaqil, tanqidiy fikrlashga, ijodiy yondashishga va amaliy bilimlarni samarali egallashga yo'naltirishi mumkinligi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv nafaqat yangi o'rganuvchilar, balki fan sohasidagi mutaxassislar uchun ham amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Kirish. Hozirgi davr zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Buning uchun esa o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni talab etadi.

Ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasiga doir ko'plab nazariy maslahatlar ishlab chiqilgan, lekin o'qituvchiga bugungi kunda talabalarining mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil ishlarni qanday tashkil etish kerakligi to'g'risida aniq ko'rsatmalar kerak.

Shuningdek Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim-tarbiya haqida shunday degan: "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni, ta'lim sifatini oshirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"¹.

Adabiyotlar tahlili. Kompyuter lingvistikasi fani va uning o'qitish metodikasi sohasida so'nggi yillarda bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. L.Abdurahmidovning asarlarida kompyuter lingvistikasi fanining yangi yo'nalishlari va avtomatik tahrir qilish jarayonlari batafsil tahlil qilingan. U fan tarkibidagi asosiy tushunchalar, metodlar va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalarini yoritadi².

S.Muhamedova kompyuter lingvistikasi bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqib, o'quv jarayonida talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish va interfaol metodlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini tavsiflaydi³. A.Po'latov va S.Muhamedova esa o'quv qo'llanmalarida talabalarni matematik modellashtirish va amaliy masalalarni yechishga yo'naltirishni ko'rsatib, didaktik modellashtirishning amaliy jihatlarini ochib beradi⁴.

A.Nurmonov lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlarini o'rganib, ilmiy izlanishlar jarayonida modellashtirishning metodologik asoslarini ta'kidlaydi. U modellashtirish yordamida o'quv jarayonini tizimli tarzda tashkil etish va talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish imkoniyatlarini yoritadi⁵. A.Rahimov esa kompyuter lingvistikasi asoslarini taqdim etib, fan bilimlarini talabalarga tushunarli

shaklda yetkazish, kitob ustida ishlash metodini qo'llash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zaruriyatini ko'rsatadi⁶.

Shuningdek, mamlakatimizdagi ta'lim tizimi rivojlanishi va tahlil qilinadigan yondashuvlar doirasida Vazirlar Mahkamasining 2017-yildagi iqtisodiy va pedagogik dasturlarida ta'lim sifatini oshirish va talabalarining mustaqil o'quv faoliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlangan⁷.

Metodologiya. Maqolada kompyuter lingvistikasi fanini o'qitishda uch bosqichli didaktik modellashtirish yondashuvi asosida metodologik baza ishlab chiqilgan. Birinchi bosqich – formalashtirish, bunda amaliy masala matematik modelga keltiriladi va uning asosiy elementlari aniqlanadi. Ikkinchi bosqich – model ichida yechish, masala matematik nuqtai nazardan yechiladi. Uchinchi bosqich – interpretatsiyalash, yechim amaliy mazmun nuqtai nazaridan tekshiriladi va tahlil qilinadi.

Talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirishda kitob ustida ishlash, iqtiboslar tanlash, ularni tahlil qilish va kichik guruhlarda muhokama qilish kabi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya etilgan. Shu yo'l bilan talabalarining tanqidiy fikrlash, amaliy ko'nikmalar va mustaqil o'quv faoliyati rivojlantiriladi.

Didaktik modellashtirish uslubi o'qitish jarayonini tizimli rejalashtirish, o'quv materiallarini amaliyotga moslashtirish va talabalarni faol o'rganishga jalb etish imkonini beradi. Ushbu metodologiya kompyuter lingvistikasi fanini o'qitishning samaradorligini oshirishga va o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari. Talabalarining mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishda mustaqil ishlar muhim o'rinni egallaydi. Mustaqil ishlarni tashkil etishda amaliy mazmunli masalalarni yechish uch bosqichda olib boriladi:

1. Formallashtirish bosqichi. Bu bosqichda berilgan masalaning matematik modeli quriladi, ya'ni qaralayotgan holatning muhim tomonlari ajratilib, ularni ifodalovchi matematik belgilashlar va munosabatlar aniqlanadi va berilgan amaliy mazmunli masalani o'zida aks ettiruvchi matematik masala tuziladi.

¹ Mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. T... O'zbekiston, 2017. 104-b.

² Abdurahmidova L. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi: kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2015. – B. 67.

³ Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo'llanma). – Toshkent: ToshDPU nashri, 2007. – 74 b.

⁴ Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2009.

⁵ Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

⁶ Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011.

⁷ Mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. T... O'zbekiston, 2017. 104-b.

2. Masalani model ichida yechish bosqichi. Bu bosqichda matematik masala u qanday mazmunli masalani anglatishini hisobga olmagan holda yechiladi.

3. Interpretatsiyalash bosqichi. Bu bosqichda matematik masalaning yechimi berilgan amaliy mazmunli masala nuqtai nazaridan tekshirib chiqiladi⁸.

Mana shunday mustaqil ishlarni bajarish jarayonida ayrim pedagogok texnologiyalardan unumli foydalanish mumkin. Quyida pedagogok texnologiya ba'zilar bilan tanishib o'tamiz.

Talabalarni o'qitishda qo'llaniladigan eng muhim metodlardan biri kitob ustida ishlashdir. Bu metodni afzalligi shundaki, u kitobxonga o'quv axborotini uning o'ziga xos suratda va qulay vaqtda olishini ta'minlaydi. O'quv adabiyotlari bilan ishlash metodlariga xos funksiyalarini barchasini bajaradi.

Kitob ustida mustaqil ishlashning maqsadi uning tarkibi bilan tanishib chiqish, tezda qarab chiqish, alohida boblarni yoki paragraflarni sinchiklab o'qish, berilgan matriyalni o'rganish, alohida bob yoki butun kitobga referat yozish, ayrim qoidalarni yodlash va boshqa usullar tarzida bo'lishi mumkin. Shuning uchun bu metodni qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, turli modefeksionalarda qo'llash mumkin.

Kitob ustida ishlash o'quvchi uchun murakkab va qiyin metod sanaladi. Juda ko'p o'quvchi o'qishni bilganlari holda kitob bilan ishlashni yetarli darajada bilmay yoki, o'qiganlarini ma'nosiiga to'liq yetmagan holda bitiradilar. Bunga sabab nima?

Nima sababdan talabalar ham o'quv adabiyotlari bilan ishlashni qiyin ko'rishadi?

Bir guruh metodistlar tadqiqot o'kazib, buning ikki asosiy sababini aniqladi:

Birinchidan, darsliklar ko'pincha noaniq, mujmal yozilgan bo'ladi, hech bo'lmaganda matnini tushunish uchun zarur bo'lgan barcha axborotni kamdan kam qamrab oladi.

Ikkinchidan, kitobxon noaniq yozilgan matnga duch kelgach, holda o'zini passiv tutadi⁹. Shuning uchun amerikalik pedagoglar tomonida "muallifdan so'rang" metodi ishlab chiqilgan. Darsni boshlashdan oldin o'qituvchi buyuk faylasuflardan Suqrotning yozma nutqi haqidagi shikoyatini boshqacha tarzda ifodalab, yozilgan matn doimo tushunarli bo'lavermaydi. Uni tushunmagan o'quvchi ayibdor emas. Odatda, gapirayotgan kishining nutqida tushinilmagan gapni, so'zni so'zlovchiga savol berib, uning kengroq tushuntirib berishini so'raymiz. Yozma matn, ya'ni kitob ma'nosi tushunarli bo'lmasa, uni tushuntirib berilishini so'rash mumkin emas. Faqat bunda uni kursdoshlari tushuntirib berishi yoki o'zi harakat qilishi mumkin, deya tushuntiradi.

Buning uchun o'qituvchi o'quvchidan matnda nima yozilganini tushinishini yana shu metod yordamida o'rganishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda o'qituvchi talabalarga mavzu bo'yicha o'quv adabiyotidan paragraf yoki biror misol yoki masalani yechishni taklif etadi. So'ngra o'qituvchi talabalarga:

Aytinglarchi muallif bu yerda nima haqida gapirayapti degan savolni beradi. Talabalar javob bergach, o'qituvchi gap nima haqida borayotganligini aytib yakun yasaydi. Yanada aniqroq tushunarli bo'lish uchun paragrafdagi teorema ta'riflarni qayta eslatib, misol va masalalarni yechish yo'lini muhokama qilib yechimi tekshiriladi.

Bu metodni boshqacha variantda, dars o'tishni uch bosqichga bo'lib quydagicha qo'llash mumkin:

Dastlab o'qituvchi talabalarga kitobni o'qib chiqib tushunmagan jumla, fikrlarni alohida ajratib daftarga yozishni topshiradi.

So'ngra, ikkinchi bosqichda muallif nima haqda fikr yuritayotganini, u nima demoqchi ekanini muhokama qiladi, uchinchi bosqichda, o'qituvchi talabalardan o'zlari muallif sifatida bu fikrni yozma ravishda qanday ifodalagan bo'lar edingiz yozib bering deb topshiriq beradi.

To'rtinchi bosqichda, talabalar yozgan javoblari, ishlagan misollari o'zaro tekshiriladi va muhokama qilinadi. Muhokama yakka tartib yoki kichik guruhlar bo'yicha olib borishi mumkin. Asosiy maqsad, yozilgan fikr tanqid qilingan mualliflikiga qaraganda tushunarliroqmi yoki aksinchaligini aniqlash.

Talabalar o'z fikrlarini bildirgach ularni solishtirib o'qituvchi o'zi yakun yasaydi. Ana shu mavzuni tushunish uchun avvaldan nimalarni o'qigan bo'lishi nimalarni bilishi kerak? va hokazo. Topshiriqni bajarishiga qarab talabalarga baho qo'yiladi¹⁰.

Bunday usulni qo'llash talabalarni o'qishni faol o'rganishga undaydi. Undan tashqari talabalarni o'z fikrlarini asoslashga, materialni taqdim qilishga o'rgatadi.

Ushbu usulni modefeksional darsda bir nechta o'quv adabiyotida berilgan shu mavzu bo'yicha matn o'qib chiqib, solishtirish ham mumkinki, u talabalarga mavzuni o'zlashtirishga, talabalarining mustaqil o'quv faoliyati ko'nikmalarini shakllantirishga, mustaqil fikr yuritishga, va bilimni mustahkamlashga katta yordam beradi.

Muhokama. Tanqidiy nazar. Bu oddiy, samarali usul bo'lib, matnning mazmunini tadqiq qilish, imkonini beradi, uni shaxsiy tajriba bilan bog'laydi va o'z munosabatini bildirish imkonini beradi. Undan tashqari o'z fikrini yozma ravishda bayon qilishni o'rgatadi va talabalarining mustaqilligini oshiradi.

Bunda simenar, amaliyat daftari sahifasi vertikal chizma bilan ikki qismga ajratiladi. O'qituvchi talabalarga chap va o'ng tomonga nimalar yozilishini tushuntiradi. Chap tomonga o'quvchiga mavzuni o'qish jarayonida o'ziga yoqqan, unda chuqur taasurot yoki tushunmovchilik tug'dirgan fikr, g'oya, malumotlarni iqtibos tarzida yozib borishi lozimligi uqtiriladi

O'ng tomonda esa o'quvchi sitataga yoki muallifning fikriga o'z munosabatini bildiradi, aynan qanday sabab ana shu fikrni alohida ajratib ko'rsatishga undaganini sharhlab beradi. Ana shu iqtibos uni nimalar haqida o'ylashga majbur qildi? O'z fikrini yozadi.

O'qituvchi avvaldan talabalarga har bir o'qilgan betdan bitta iqtibos yoki 10 ta betlab 4 ta iqtibos va hokazo tarzida keltirib unga izoh berishlari zarurligini aytadi yoki bir matematik kategoriyaga turli kitoblarda turlicha tarif berilgan. Talabalarga ularni solishtirish asosida eng to'g'ri deb yozilganini ko'rsatib o'z fikrini asoslab berishni topshirish mumkin.

1. Darsni yakka tarzda har bir o'quvchidan tanlagan mavzu va unga berilgan izohni o'qishi bilan barcha talabalar fikrini eshitish shaklida tashkil qilish mumkin.

So'ngra talabalar o'zlari eng yaxshi iqtibos va izohni kim tayyorlaganini ko'rsatib, sinf bo'yicha 1-3 o'rinlarni kimga berishni aniqlash mumkin. Bunday usul talabalarni faollashtiradi.

2. Juftliklarda ishlash ikki talaba birgalikda iqtibos tanlab, izohlarni ham birgalikda yozib, yozgan fikrlarni bayon qilishlari mumkin. Bunda talabalar o'rtasida eng "hozirjavob" juftliklar tanlanadi.

3. Kichik guruhlarda ishlash. Bunda har bir kichik guruh talabalar sonini nechta bo'lsa, shuncha iqtibos va uning izohni keltirishadi. Sinfda esa guruh vakili taqdim qilgan sitatalardan eng yaxshi deb topganini izohi bilan o'qib beradi. Nima sababdan guruh aynan ana shu iqtibos va izohni eng yaxshi deb topgani sababini bayon qiladi. Kichik guruhlar o'rtasida berilgan javoblarga ko'r g'olblar aniqlanadi.

Model so'zi fransuzchadan olingan bo'lib namuna degan ma'noni anglatadi. Ilmiy tadqiqot ishlarida voqelik, jarayon yoki qurilmani o'rganish uchun uni asl nusxasi o'rniga qabul qilingan shakli - nusxasolinishi va o'rganilishi sifatida qaraladi. Ilmiy tadqiqot ishlarida tadqiqotchi tomonidan o'rganilayotgan ob'yektga o'xshash, uning ko'rsatkichlarini o'zida mujassamlashtirgan tizimi model deb qabulqilinadi. Modellashtirish uslubi buyum, jihoz yoki jarayonni tabiiy, real holda emas, balki uning modelida o'rganishdir. Modellashtirish - ilmiy tadqiqot ishlarida ko'p qo'llaniladigan muhimuslublaridan hisoblanadi. Didaktikada texnologiyalashtirish jarayonlarining rivojlanishi didaktik vositalardan foydalanishga asoslangan mantiqiy harakatlarning bajarilishini modellashtirish va qo'llab-quvvatlash; algoritmik aqliy operatsiyalar va harakatlarga o'tish; idrokning vizual kanalining potentsialini amalga oshirish tegishli didaktik vositalardan foydalangan holda ma'lumotlar - tasviri, mnemonik, tartibga soluvchi; takomillashtirish tayyorgarlik faoliyati texnologiyalari (nizoning oldini olish, didaktik modellashtirish, dasturlash) universal ta'lim faoliyatini o'rganish vositasi sifatida faol yondashuvni ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq. Didaktikada o'qituvchilar Nima uchun? Nimanin? Qanday? va Qachon? muayyan tarkibni o'rgatish yoki muayyan o'quv faoliyatini amalga oshirish bo'yicha qabul qiladigan qaror va harakatlar "didaktik modellar" yordamida amalga oshiriladi. Didaktik modellar yordamida o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qitishni rejalashtirish yoki o'quv jarayonini baholash harakatlari boshqariladi. Bo'lajak o'qituvchilar bevosita pedagogik faoliyatga tayyorlanish jarayonida o'qitish va o'rganish haqida ta'lim oladi. Didaktik modellar tizimli ravishda qo'llanilganda, o'qitish jarayonini amalga oshirishga yordam beradi va o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda yordam beradi. Pedagogik ta'limotlar tarixida didaktika hamda o'qitish metodikasi sohasida o'qitishning muhim elementlarini aniqlash va tavsiflashga qaratilgan didaktik modellardan foydalaniladi. Ushbu modellar o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qitishni rejalashtirish yoki ta'lim amaliyotini baholashda tushunish, tanqidiy tahlil qilish yoki e'tiborga

⁸ Abduhamidova L. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi: kompyuter lingvistikasi. - Toshkent, 2015.

⁹ Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. - Toshkent: Akademnashr, 2010.

¹⁰ Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma). - Toshkent, 2009

olish kerak bo'lgan muhim komponent va jarayonlarga diqqat qaratiladi¹¹.

Didaktika atamasi XVII asr boshlarida yaratilgan. XVIII asroxirida Skandinaviya mamlakatlariga Daniya, Norvegiya, Shvetsiyaga tarqaldi. Bugungi kunda insonparvar yondashuvga asoslangan didaktik an'analar ta'lim san'ati sifatida pedagogik faoliyatda keng qo'llanadi. XIX asr boshlarida Iogan Fridrix Gerbart (1776-1841) didaktikaning amaliy falsafa va psixologiyani ikki asosiy tayanch sifatida ajratib ko'rsatdi. Amaliy falsafa ta'lim maqsadlariga "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimani o'qitish kerak?", "Nimaga o'qitish kerak" kabi savollarga javob topishda ko'maklashadi, psixologiya esa "Qanday o'qitish kerak?", "Qayerda o'qitish kerak?" kabi savollar orqali o'qitish amaliyotining samarali usullari va vositalaridan foydalanishda ko'maklashadi. Gerbart g'oyalari didaktikaning psixologik xususiyatlari AQSH ta'lim faoliyatida yetakchilik qilsa, amaliy falsafa bilan bog'liq jihatlar Shimoliy Yevropa mamlakatlarida keng qo'llanadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSHda o'quv loyihasi sohasi Yevropada didaktikasining keyingi rivojlanishi bilan parallel ravishda Pol Xeymann (1901-1967) va Volfgang Klafki (1927-2016) tomonidan ishlab chiqilgan. Ta'lim loyihasi an'anaviy ravishda o'qitish usullariga "Qanday o'qitish kerak?", "Qayerda o'qitish kerak?" singari masalalarga e'tibor qaratilgan bo'lsa, Yevropa didaktikasida o'quv materialining mazmun-mohiyati hamda uning dolzarbligiga "Nima uchun o'qitish kerak?", "Nimani o'qitish kerak?", "Nimaga o'qitish kerak" kabilarga urg'u berilgan. Barcha fanlardan ta'lim jarayonini tashkil etishda ushbu

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. – T.: O'zbekiston, 2017. 104-b.
2. Abduhamidova L. Tilshunoslikning yangi yo'nalishi: kompyuter lingvistikasi. – Toshkent, 2015.
3. Abduhamidova L. Kompyuter lingvistikasining avtomatik tahrir yo'nalishi. BML. – Toshkent, 2016. – 67 b.

jihatlariga e'tibor qaratish hamda u to'g'risida fikr yuritishda ikkala yo'nalish ham muhimdir¹².

Xulosa. Kompyuter lingvistikasi fanini o'qitishda didaktik modelning joriy etilishi ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga, talabalarni mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga katta imkoniyat yaratadi. Uch bosqichli modellashtirish – formalashtirish, model ichida yechish va interpretatsiyalash – talabalarga matematik va amaliy masalalarni tizimli ravishda o'rganish va natijalarni amaliy mazmun nuqtai nazaridan baholash imkonini beradi.

O'quv jarayonida kitob ustida ishlash, iqtiboslar tanlash, ularni solishtirib tahlil qilish, shuningdek, juftlik yoki kichik guruhlarda muhokama qilish metodlari talabalarni faollashtiradi, o'z fikrini asoslashga, tanqidiy yondashishga va materialni chuqur anglashga o'rgatadi. Shu bilan birga, talabalar mustaqil ishlash jarayonida ijodiy yondashuvni rivojlantiradi va amaliy bilimlarni mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

Didaktik modellar yordamida o'qitish jarayoni tizimli ravishda rejalashtiriladi, o'quv dasturlari mazmuni aniq belgilanadi va o'qituvchilarning pedagogik mahorati oshiriladi. Bu yondashuv kompyuter lingvistikasi fanining ilmiy-pedagogik asoslarini yanada takomillashtirishga, har bir milliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan samarali o'qitish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Natijada talabalar fan bilimlarini chuqurroq o'zlashtiradi, mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi, hamda o'zlashtirilgan bilimni amalda qo'llashga tayyor bo'ladi.

4. Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo'llanma). – Toshkent: ToshDPU nashri, 2007. – 74 b.
5. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademya nashri, 2010.
6. Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2009.
7. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademya nashri, 2011.

¹¹ Abduhamidova L. Kompyuter lingvistikasining avtomatik tahrir yo'nalishi. BML-Toshkent, 2016. 67 b.

¹² Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo'llanma). – Toshkent: ToshDPU nashri, 2007. – 74 b.